

DARS ISHLANMA NAMUNASI

Sana:

Sinf: 4-sinf

Mavzu: Tovuq bilan Tulki

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: berilgan mavzuda og'zaki talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda to'g'ri va ravon so'zlay olish; matnlarni og'zaki talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda to'g'ri, ravon va ifodali o'qiy olish malakalarini mustahkamlash (Nutqiy kompetensiya: og'zaki nutq (OTMT.1.NK.ON.1); o'qish va tushunish (OTMT.1.NK.A.O'T.1));

Tarbiyaviy maqsad: munozara jarayonida mavzudan chetga chiqmagan holda o'z fikrini erkin navbat bilan bayon qilish va asoslash, shaxsiy qarashini odob bilan himoya qilish (Nutqiy kompetensiya: og'zaki nutq (OTMT.1.ON.2));

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarda matnning asosiy mohiyatini aniqlay olish, matn yuzasidan savol, taklif va tavsiyalar bera olish; ertak, hikoya va rivoyatlarning asosiy g'oyasini, axloqiy jihatini aniqlash, ertak qahramonlarining nutqini obrazga kirib o'qiy olish; berilgan savolni tushunish va mantiqli javob bera olish; ibora, maqol va hikmatli so'zlarning ma'nosini tushunish ko'nikmalarini yanada rivojlantirish (Nutqiy kompetensiya: anglash (o'qish va tushunish) (OTMT.1.NK.A.O'T.4); (OTMT.1.NK.A.O'T.5); tinglab tushunish (OTMT.1.K.A.TT.3); (OTMT.1.NK.A.TT.6)).

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars tipi: noan'anaviy

Dars metodi: hikoya metodi, ko'rgazmali metod, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: doska, bo‘r, darslik, ko‘rgazmalar, tarqatma materiallar.

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism.

O‘quvchilar bilan salomlashilib, davomat olinadi. Navbatchi axboroti tinglanadi. Sinf va o‘quvchilarning darsga tayyorlik holati tekshiriladi.

II.O‘tgan mavzuni mustahkamlash.

O‘tilgan mavzuni takrorlab olish uchun “Qorbo‘ron” metodidan foydalaniladi. Bu metodda yumaloqlangan qor ko‘rinishida yasalgan yumshoq predmet o‘quvchilarga uzatiladi. Kimga tushsa yoki kimga tegsa o‘sha o‘quvchiga o‘tilgan mavzu bo‘yicha savol beriladi.

III.Yangi mavzuga zamin yaratish.

O‘quvchilarga 1 daqiqa vaqt beriladi va shu vaqt ichida maqolni tiklashi talab etiladi. Maqolni tiklab bo‘lishgach, 3-4 nafar o‘quvchidan maqolning ma‘nosi so‘raladi. So‘ng o‘quvchilar Ezopning hayoti va ijodi haqida berilgan qisqacha ma‘lumot bilan tanishtiriladi.

IV.Yangi mavzu bayoni.


O‘qituvchi masalni o‘quvchilarga o‘qib beradi. So‘ng “Rolli o‘yin” metodidan foydalaniladi.

Ma‘lumki, ma‘lumotni o‘zlashtirish xususiyatlari bo‘yicha o‘quvchilar turli xil tiplarga bo‘linadi. Kimdir eshitganini yaxshi eslab qoladi, kimdir ko‘rganini, kimdir esa harakat orqali amalda bajarilganini yaxshi o‘zlashtiradi. Mana shu jihatdan “Rolli o‘yin” metodi o‘quvchining barcha o‘zlashtirish xususiyatlarini faol jalb qiladi. Bunda o‘quvchi mavzuni ham eshitadi, ham ko‘radi, ham amalda bajaradi. Rol o‘ynaganda o‘quvchi uning mas‘uliyatini his qiladi va rolni qoyilmaqom qilib bajarish uchun mavzuni yaxshilab o‘zlashtirishga harakat qiladi.

Buning uchun o'quvchilardan 3 nafari tanlanib, biriga tulki obrazi, biriga tovuq obrazi va uchinchi o'quvchiga mualliflik qilish topshiriladi.

O'qituvchi Ezopning yana bir ijod mahsuli "Burgut bilan tulki" masali bilan o'quvchilarni tanishtiradi.

So'ng o'quvchilarga tarqatma topshiriqlar beriladi. Topshiriqlarda tulki, burgut va tovuqni qanday kishilarga o'xshatish mumkinligi so'raladi.



V.Yangi mavzuni mustahkamlash.

Mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilar darslikda berilgan savollarga javob berishadi. So'ng "FSMU" metodidan foydalaniladi. Bunda FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tayyorlanadi:

F – fikringizni bayon eting.


S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol, dalil keltiring


U – fikringizni umumlashtiring

O'quvchilar 2 guruhga ajratiladi. Har bir guruh uchun alohida "FSMU" texnologiyasi tayyorlangan qog'oz beriladi. O'quvchilar guruh bilan muhokama

qilishi uchun 1 daqiqa vaqt beriladi, muhokama uchun vaqt tugagandan so'ng har bir guruhdan 1 nafar o'quvchi chiqib, o'z fikrini bayon etadi.



“Venn Diagrammasi” metodidan foydalanib ikkita masal o'zaro tahlil qilinadi.



VI. O'quvchilarni baholash va darsni yakunlash. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi hamda rag'batlantiriladi.

VII. Uyga vazifa berish. Ikkita masalni o'qib, ijodiy kichik masal yozib kelish uyga vazifa qilib beriladi.